

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-6 MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI VA RIVOJLANISHI

X.San'atboev

NMPI Musiqa ta'limi yo'naliishi 1-kurs talabasi,

Pedagogika fakulteti Yoshlar Akademiyasi rahbari

Ilmiy rahbar: NMPI dotsenti, p.f.n.

S.Romanova

Ключевые слова: музыка, обучение, кружки, воспитание, искусство, культура

Таянч сўзлар: musiqa, ta`lim, to`garaklar, ta`lim, san`at, madaniyat

Key words: music, education, circles, education, art, culture

Musiqiy an'analar, tadbirlar, mahalliy marosimlar o'zbek va qoraqalpoq xalqining ijtimoiy, tarixiy rivojlanishi, etnopsixologik xususiyatlari, hayotiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari shakllangan bo`lib asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Shu tufayli o`quvchi yoshlarda Vatanga muxabbat, mehr oqibat, ahloq-odob, ma'rifiy-madaniy kabi fazilatlar qaror topib boradi.

Axloqiy-madaniy tarbiyani keng ko`lamda olib borishda san`at, xususan, musiqa san`atini mukammal o`rganish katta tarbiyaviy kuchga egadir. Zero, bu san`at eng qadimiy, ayni chog`da zamonaviy va xalqqa yaqin bo`lgan san`at turi sanaladi.

Abu Ali Ibn Sinoning hayot yo`liga nazar solsak, uning keng xalq orasida faqat o`tkir tabib sifatidagina emas, balki adabiyot va san`atning chin muxlisi sifatida, ularning taraqqiyoti uchun fidoiy inson sifatida ham mashhurdir. Chunonchi, u o`zining «Ash-shifo» kitobida musiqaning yaratilishi tarixi, kuy va ohangning bola qalbiga estetik ta`siri haqida qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Olimning ta`qidlashicha, inson o`z tabiatiga ko`ra moyil, ayni bir vaqtida musiqani tinglash, u bilan shug`ullanish qanchalik erta boshlansa, insonda ana shu go`zzallik san`at turiga bo`lgan moyillik va ehtiyoj ham shunchalik tez va barvaqt rivojlanib boradi. Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy ahamiyati haqida gapirar ekan, uni jismoniy tarbiya bilan birga bog`lab olib borishning ahamiyatini ham alohida ta`qidlab o`tadi.

Ahloqiy va madaniy estetik tarbiyaning birligi yosh avlodning orasidagi munosabatlarga doir tushunchalarning shakllanishi, ya`ni madaniy estetik did va ehtiyojning vujudga kelishi uchun dialektik asos bo`lib xizmat qiladi.

O`quvchi yoshlarning ahloqiy-madaniy, tarbiyalash borasidagi ishlar musiqa madaniyati darslarida ham amalga oshiriladi. Ushbu ishlar sinf va maktabdan tashqari turli musiqaviy tadbir va mashg`ulotlar jarayonida davom ettiriladi. Bular: musiqa va xor to`garaklari, muktab radiouzilining musiqaviy eshittirishlari majmui, musiqa shinavandalari klubi, «Xushovoz» ko`rigi, musiqali viktorinalar, taniqli bastakorlar, ijrochi va xonandalar bilan uchrashuv hamda kechalar, jamoa tarzida kontsert va spektakllarga borish kabi turli ishlarni ko`rsatish mumkin. O`tkaziladigan tadbirlarning samarasi muktab musiqa o`quvchilarining faolligiga bog`liq bo`lish bilan bir qatorda mazkur fan o`qituvchilarining tashkilotchiligiga ham bog`liqdir.

VOLUME-3, ISSUE-6

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida ahloqiy madaniy, estetik tarbiya ishini tobora takomillashtirish, yangi shakl didaktik vositalar interaktiv metodlarini izlab topish kabi dolzarb vazifalar qo'yilmoqda. O'quvchilarni musiqa olamiga olib kirishda badiiy havaskorlik to'garaklari, jamoalarini muhim o'rinni tutadi. Shu bois mazkur tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash, oliy o'quv yurtlarida, ixtisoslashtirilgan san'at madaniyat maktablarida, maktab va maktabdan tashqari tarbiya muassalarida badiiy havaskorlik to'garaklarining shahobchalarini kengaytirish, bolalar va o'smirlar badiiy havaskorlik jamoalarini ko'plab tashkil qilish vazifasini hal etish talab qilinadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 200 dan ortiq badiiy havaskorlik jamoalarini faol ko'rsatmoqda.

O'quvchi yoshlarni mumtoz musiqa merosi bilan yaqindan tanishtirish, havaskorlik to'garaklari, san'at saroylarida tashkil etilgan xalq cholg'u asboblari ansamblari faoliyatlarini keng yoyish musiqa san'ati rivojini va taraqqiyotini ta'minlaydi degan umiddamiz.

Mazkur ansamblarda nafaqat milliy qadriyatlarimiz, an'analarimizni, qolaversa, qardosh xalqlar san'ati va madaniyatini targ'ib qilish vazifalari amalga oshirilmog'i maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quvchi yoshlarning vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'ularini shakllantirilgan va o'stirgan bo'lamic. Jamoa bilan ishlash jarayonida o'quvchi yoshlar o'z o'zini boshqarish, o'zgalar mehnatini qadrlash, bir-birlariga yordam qo'lini cho'zish kabi yaxshi ahloqiy sifatlarni o'rganadilar. Ansamblarda o'quvchilar bir-birlari bilan yillar davomida do'stlashadilar. Ular rahbar yordamida kuylarning bastakorlari haqida o'sha kuyning yozilish uslubi haqida ma'lumot oladilar, shu orqali o'zlarining ahloqiy-madaniyatlarini shakillantira boradilar. Bundan tashqari o'z ijrolari bilan o'zları, balki tinglovchilarga ham estetik zavq bag'ishlaydilar.

Musiqa vositalari bilan ahloqiy madaniy tarbiyalash jarayoni o'ziga xos xususiyat, emotsiyonal ta'siri bilan ko'zga tashlanadi. Musiqa san'atida ham g'oyaviylik birinchi o'rinda turadi. Bizning asosiy vazifamiz mazmunan yaxshi, yangidan yangi asarlar bilan boyitilishidan iborat bo'lomog'i lozim, bu borada qoraqalpoq xalq musiqalarining roli va ahamiyati juda katta.

O'quvchi yoshlarni ahloqiy-madaniy, estetik tarbiyalash har tomonlama garmonik rivojlangan va barkamol shaxs bo'lib etilishida o'qituvchilarga katta ma'suliyat vazifasi qo'yilgan. Bu vazifani muvaffaqiyatlama amalga oshirishning muhim vositalaridan biri – san'atdir.

Bugungi kunda o'quvchi yoshlarimizni ahloqiy-madaniy, estetik tarbiyalashda san'atning mavjud imkoniyatlardan foydalanalmoqda. Buning dalili bo'lib, har yili o'tkaziladigan: «Navro'z bayrami», «Ilxom chashmalari», «bolalar va o'smirlar uchun barkamol avlod», «Mustaqillik bayrami», «Hosil bayrami»larimizda ko'rishimiz mumkin.

Musiqa san'ati yosh avlodlarimizning his tuyg'ulariga emotsiyonal ta'sir ko'rsatadi, o'ziga xos badiiy obraz orqali xilma-xil ruhiy xolat va kayfiyatlar ifoda etadi. Ya'ni barcha o'quvchi yoshlarni musiqa san'atiga jalb etish, g'oyaviy dunyosini har tomonlama takomillashtirish nazarda tutiladi. Kelgusi bo'lajak avlodlarimizni har tomonlama etuk va barkamol bo'lib etishuvi uchun yuksak badiiy did va madaniy malaka hosil qilish, bularni albatta tarbiyasiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Moziydan bizning zamonamizga asrlar osha, avlodlar va ajdodlar osha etib kelgan, xalq tafakkuri va hayotini ko'rsatuvchi qo'shiq, kuylar juda ko'p, ularning har birida ta'sir etuvchi, his-hayajon uyg'otuvchi usul, ritmi vositasida, mazmuni jihatidan esda qoluvchi,

VOLUME-3, ISSUE-6

kishini o'ylashga, fikr-mulohaza yuritishga majbur qiluvchi ta'sirchan kuch bordir. Ularning kishilik jamiyati va har bir inson xayoti uchun qimmatli ahamiyatga ega ekanligini allomalarimiz qadim-qadimdan e'tirof etib o'qtirib kelgandir. «Yo al-hazar, ey musiqa olami, yaxshiyamki sen borsang, gar sen bo'limganingda insonning ahvoli ne kechar edi!»-deb xitob qilgan edi Farobiya [1].

Madaniy merosga to'g'ri yondashish, undan unumli foydalanish ko'p yillar mobaynida e'tibordan chetda edi, o'quv yurtlarida o'rgatilmas, fan sifatida qaralmas edi. Bu masalaga respublikamiz mustaqillikga erishgandan so'ng e'tibor kuchaydi, dasturlar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyalar nashr etildi. Shu bois ayrim qo'shiqlarning tarbiyavii tomoniga, she'r mazmuniga e'tiboringizni jalb etmoqchimiz.

Musiqa ta'lim yo'naliqidagi talabalarini umum ta'lim maktablariga, o'qituvchilik kasbiga tayyorlar ekanmiz, qo'yidagi vazifalarni bajarish maqsad qilib olinadi.

1.O'quvchi yoshlarda musiqa san'atiga muxabbat xissiyotlarini uyg'otish, qiziqish uyg'otish, ularning musiqa qobiliyatlarini o'stirish.

2.O'quvchi yoshlarga milliy musiqa merosimz orqali vatanga muxabbat, o'z yurtiga foyda keltirish, burchini to'g'ri tushunish hissini tarbiyalash.

3. O'quvchi yoshlarga milliy musiqa merosimz orqali vatanimiz tabiyatiga muhabbat, ekologik madaniyatlarini shakllantirishda o'z burchini to'g'ri tushunish hissini tarbiyalash.

4. O'quvchi yoshlarning badiiy ijodkorlik qobiliyatini o'stirish. Ularning xayotga, o'qishga, mehnatga va turli go'zzallikka intilish qobiliyatini rivojlantirish, atrof muhitga qiziqtirish.

Dasturning bosh mezoni qilib «Musiqa va hayot» mavzusi olinishi o'rini, chunki inson xayotini qo'shiqsiz, musiqasiz, tasavvur qilib bo'lmaydi, u bizga hamisha hamrox, ishlarmizda madadkor ma'naviy boyligimizning bir qismidir.

Musiqa san'ati o'quvchi yoshlarni go'zzallik, yaxshilik, insonparvarlikka jalb etishda kuchli ta'sir ega ekanligini nazarda tutib, maktab hayoti qanday musiqa ruhi bilan sug'orilganligiga ahamiyat berish zarur. Bolalar uchun tushunarli, ularning atrofida ko'p kuylanib turadigan kuy, qo'shiqlarni tanlash, ularda shu musiqa asarlarini qayta-qayta tinglash istagini uyg'otish, har gal yangi taasurotlarga ega bo'lishlariga erishish kerak.

Odamlar bilmagan narsalarga dushmanlik ko'zi bilan qaraydilar. Bolalarga atalgan qo'shiq va kuylar bilan bir qatorda fol'klor qo'shiqlar, serjilo, serqirra ohanglarga boy bo'lgan qoraqalpoq milliy cholg'u va mazmunli klassik qo'shiqlarini o'quvchilarga o'rgatish bu asarlarning o'rta maktablarga kirib borishiga, o'quvchilarda bu san'at merosimizning ixlos, muxabbat uyg'otishga, uni xurmatlashga o'rgatdi.

Al Farobiya o'zining musiqaga bag'ishlangan asarlarida o'tmishning musiqa merosiga katta e'tibor berib har bir etuk san'atkor uch narsaga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi:

1. «Xar bir bilimning usul va qoydalarini to'la bilishi lozim.

2. Shu bilimning turli holatlarida hosil bo'lgan usul va qoydalarning natijalarini sharx va izox etishga qobil va iste'dodli bo'lishi kerak.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-6

3. Musiqa (san`ati) haqida noto`g`ri nazariyaga ega bo`lgan yozuvchilarning noto`g`ri nazariyalarini tanqid eta bilsin, xatto va to`g`ri nazariyalar o`rtasidagi farq ko`rsata bilsin va xatolarni oydinlashtira olsin» [1].

Hozirgi yoshlar madaniyatiga, hayotga engil kurashga o`rganib, tijoratga berilib, zamonaviy kishi bo`laman deb chet el ansamblarga taqlil qilish, tushunib tushunmay xorijiy qo`shiqlarni aytish, milliy madaniyatimizga engil yoki befarq qarash odad tusiga kirib qolishi bu sohada ishlovchilarga katta vazifa yuklaydi. Musiqiy xazinamiz (kuy, qo`shiqlar, musiqa sozlari, ijro yo`llari, usullari, milliy bezaklar) durdona merosimiz ko`p yillar qarovsiz qolib, hozirda e`tibor berishga shaylandik. Bu sohada ilmiy ishlar ham qilinayapdi.

An`anaviy va mumtoz musiqa merosimiz etuk honandalar ijrosida qaytadan tiklanib targ`ibot qilinmoqda. Biror bir kuyni yoki qo`shiqni tinglaganda, uning nozik sadolanishida tarix aks sado berib turgandek tuyuladi, M.Qoriyoqubov, Yu.Rajabiy, M.Uzoqov, M.Karimov, M.Axmedov, O.Xatamov, yosh avlodga mansub M.Yo`lchieva, X.Rajabiy, T.Qurbanov qo`shiklari, T.Alimatov, M.Yunusov, A.Abdullaev, G.Quchqarov, A.Ismaylov, U.Rasulov, T.Rajabiy kuylari kishini lol qoldiradi. Eslaylik Munojat, Soydan, Chorg`ox, Ajama taronalari, Chuli iroq, Surnay navosi, Qushchinor, Girya, Tanovar, Galdir, Kuygay va boshqalar tinglovchilarni befarq qoldirmaydi.

Ko`p ansambl rahbarlari, musiqa o`qituvchilari o`z o`quvchi yoshlariga kuy, qo`shiq o`rgatishda ijro yo`liga, ijro maxoratini oshirish usullariga e`tiborlarini qaratadilar, bu ham muhim, lekin o`rganilayotgan asar moxiya-tini tushunib, taxlil qilib, mazmuni, tarixi haqida bilimga ega bo`lib o`rganilsagina katta yutuqqa erishish mumkin. Suxbat, savol-javoblar yo`li bilim, o`rganilayotgan musiqa asbobi tarixi bilan, o`rganilayotgan asarni tanishtirib olib borish, taniqli ijrochilar ijodi, erishilgan bugungi yutuqlar haqida ma`lumot berish o`z samarasini beradi.

Foydalilgan adabiyotlar:

1.Ал Фараби «О классификации наук» в книге музыкальная эстетика стран Востока М:Музыка,1967-26 ст

2.The importance of the cognitive influence of music in the development of creative thinking of students and students as well as they do it ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal FAKTORI: 7.58 Vol. 11 , Issue 10, October 2021/
<https://saarj.com> 2260-2264

3.Педагогические условия развития творческой личности Педагогическое образование: традиции, инновации, поиски, перспективы Материалы X- Международной научно-практической конференции Шадринск 05.02.2020года 209-212ст

Резюме

В данной статье рассматриваются актуальные задачи стоящие перед нашим обществом, такие как совершенствование работы нравственного, культурного и эстетического воспитания, поиск новых форм дидактических средств и интерактивных методов. О важной роли в приобщения учащихся к миру музыки.

Résumé

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-6

Ushbu maqolada jamiyatimiz oldida turgan axloqiy, madaniy va estetik tarbiya ishlarini takomillashtirish, didaktik vositalar va interfaol usullarning yangi shakllarini izlash kabi dolzARB vazifalar muhokama qilinadi. Talabalarni musiqa olami bilan tanishtirishdagi muhim ahamiyati haqida so'z qilinadi.

Summary

This article discusses the actual tasks facing our society, such as improving the work of moral, cultural and aesthetic education, the search for new forms of didactic tools and interactive methods. On the important role in introducing students to the world of music.

